Farmatsevtika marketingi boshqa tarmoqlarga nisbatan o'ziga xos xususiyatlar, murakkab cheklovlar va yuqori darajadagi tartibga solish talablari bilan ajralib turadi. Philip Kotler ta'kidlaganidek, "bozorda ustunlikka erishish uchun tashkilotlar iste'molchining raqamli maydondagi xulqini oldindan baholashi va unga moslashishi zarur" [5]. Biroq farmatsevtika sektorida ushbu tamoyillar amaliyotda reklama faoliyatining qonunchilik bilan tartibga solinishi va tibbiy-etika talablarining mavjudligi sababli yanada murakkablashadi.



Michael Porterning raqobat ustunligi nazariyasiga ko'ra, kompaniyaning bozordagi muvaffaqiyati mahsulot sifati, xarajatlarni samarali boshqarish hamda differentsiatsiya strategiyasiga bog'liq [6]. Farmatsevtika sektorida differentsiatsiya ko'pincha eksklyuziv distribyutorlik shartnomalari, GMP sertifikatlari, brend obro'si va shifokorlar ishonchi orqali shakllanadi. Shu nuqtayi nazardan, Shining Impex AJning Avantika Medex Pvt. Ltd. bilan eksklyuziv hamkorligi kompaniyaning muhim strategik ustunligi sifatida namoyon bo'ladi.

2009–2023-yillar oralig'idagi 329 ta akademik maqolani qamrab olgan bibliometrik tahlil natijalari farmatsevtika marketingiga oid ilmiy tadqiqotlar, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda, sezilarli darajada ortib borayotganini ko'rsatadi [7]. Biroq Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan O'zbekiston bo'yicha empirik tadqiqotlar soni hali ham cheklangan bo'lib, bu mazkur tadqiqotning ilmiy dolzarbligini yanada oshiradi.

Farmatsevtika sektorida medical representative (tibbiy vakil) tizimi kompaniya va tibbiyot mutaxassislari o'rtasidagi asosiy kommunikatsiya vositalaridan biri hisoblanadi. Ushbu tizim orqali shifokorlar va farmatsevtlarga mahsulotning tarkibi, samaradorligi va qo'llash xususiyatlari haqida professional ma'lumot yetkaziladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tibbiy vakillar faoliyati shifokorlarning retsept yozish qarorlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Xususan, Rahme va boshqalar [8] tomonidan Livanda o'tkazilgan empirik tadqiqot farmatsevtika marketing faoliyatining shifokorlar qarorlariga bevosita ta'sir qilishini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mahsulot haqida professional va tizimli axborot taqdim etilishi retsept yozish ehtimolini oshiradi.

Shuningdek, Al-Areefi va boshqalar [9] Rejali xulq-atvor nazariyasi (Theory of Planned Behaviour) asosida olib borgan tadqiqotida tibbiy vakillarning shifokorlar bilim va xabardorligini oshirishdagi muhim rolini tasdiqlagan. Mualliflarning fikricha, medical detailing tizimi nafaqat reklama vositasi, balki ilmiy-kommunikatsion platforma sifatida ham xizmat qiladi.

So'nggi yillarda global farmatsevtika marketingida raqamli kommunikatsiyalar ulushi keskin ortib bormoqda. Xalqaro tahlillarga ko'ra, farmatsevtika va sog'liqni saqlash sohasidagi ijtimoiy media marketing bozori 2024-yilda 12,9 mlrd AQSH dollariga yetgan bo'lib, 2032-yilgacha ushbu ko'rsatkichning 35,6 mlrd dollarga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu esa o'rtacha yillik 13,5 foizlik o'sishni anglatadi [10].

O'zbekistonda esa raqamli farmatsevtika marketingi hali rivojlanish bosqichida bo'lib, OTC (retseptsiz sotiladigan) dori vositalarining onlayn savdo ulushi 2024-yilda atigi 0,84 foizni tashkil etgan [1]. Shu bilan birga, Telegram va Instagram kabi platformalarning ommalashuvi farmatsevtika kompaniyalari uchun yangi kommunikatsion imkoniyatlarni shakllantirmoqda.

Saudiya Arabistonida o'tkazilgan tadqiqotlar [11] ijtimoiy tarmoqlar, elektron pochta marketingi va raqamli kontent strategiyalarining farmatsevtika kompaniyalari hamda dorixonalar faoliyatida yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlaydi. Zamonaviy marketing nazariyasida omnikanallar yondashuvi — ya'ni reklama va kommunikatsiya kanallarini yagona integratsiyalashgan tizim asosida boshqarish — iste'molchilar bilan uzluksiz va samarali aloqa o'rnatishning muhim vositasi sifatida qaralmoqda. Shu sababli O'zbekiston farmatsevtika bozori uchun ham an'anaviy va raqamli reklama vositalarini uyg'unlashtiruvchi omnikanallar strategiyalarini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot aralash metodologiya (mixed methods) asosida tashkil etilgan bo'lib, quyidagi to'rtta asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi:

1. korxonada ichki hujjatlari va bozor tahlili ma'lumotlari asosidagi kontent-tahlil;
2. raqobatchilar bilan qiyosiy tahlil (competitive benchmarking);
3. birlamchi empirik tadqiqot (so'rovnoma);
4. raqamli marketing va SEO diagnostikasi.

Mazkur metodologik yondashuv kompaniya reklama siyosatini kompleks tarzda baholash, mavjud imkoniyat va cheklovlarni aniqlash hamda strategik tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Tadqiqot davomida sifat va miqdoriy tahlil usullarining uyg'unligi reklama faoliyatining amaliy samaradorligini chuqurroq tahlil qilishga xizmat qildi.

Birlamchi empirik tadqiqot sifatida 2026-yil fevral–may oylarida Shining Impex AJ mahsulotlarining amaldagi va potensial iste'molchilari o'rtasida tuzilgan so'rovnoma (structured questionnaire) o'tkazildi. So'rovnoma ikki asosiy respondent guruhini qamrab oldi:

1. Bevosita mahsulot iste'molchilari (n=71): respondentlarning 62 foizi Toshkent shahri va Toshkent viloyatidan, 38 foizi esa boshqa hududlardan qatnashdi.
2. Tibbiyot mutaxassislari — shifokorlar va farmatsevtlar (n=43): ular umumiy respondentlar sonining 38 foizini tashkil etdi.

Umumiy hisobda tadqiqotda 114 nafar respondent ishtirok etdi. So'rovnoma Likert shkalasi (1–5 ball) hamda ko'p variantli savollar asosida tuzilib, quyidagi yo'nalishlarni qamrab oldi:



- mahsulotlar haqida ma'lumot olish manbalari;
- reklama kanallariga munosabat;
- mahsulot tanlash mezonlari;
- reklama samaradorligi;
- iste'mol talabi va brend xabardorligi darajasi.

Tadqiqotning etik tamoyillariga rioya qilish maqsadida barcha respondentlardan oldindan ma'lumotli rozilik (informed consent) olindi hamda shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi ta'minlandi.

Raqobatchilar faoliyatini baholash uchun competitive benchmarking usulidan foydalanildi. Tahlilda kompaniyalar 10 ta asosiy mezon bo'yicha 10 ballik tizim asosida qiyosiy baholandi. Baholash mezonlari quyidagilarni o'z ichiga oldi:

1. brend kuchi;
2. bozor qamrovi;
3. mahsulot sifati (GMP standartlari);
4. eksklyuziv distribyutorlik shartnomalari mavjudligi;
5. narx bo'yicha raqobatbardoshlik;
6. distribyutsiya tarmog'i;
7. mahsulot assortimentining kengligi;
8. raqamli marketing faoliyati;
9. medical representative tizimi;
10. texnologik ustunlik.

Taqqoslash uchun O'zbekiston farmatsevtika import bozorida faoliyat yurituvchi quyidagi asosiy raqobatchilar tanlab olindi: Medimpex AJ, Pharmed MChJ, Uzbekmed AJ hamda BioPharm MChJ.

Mazkur metodologiya orqali Shining Impex AJning bozordagi raqobat pozitsiyasi, reklama siyosatidagi ustun va zaif jihatlari hamda rivojlanish imkoniyatlari tizimli ravishda baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shining Impex AJ O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika mahsulotlarini import qilish va distribyutsiya qilish sohasida faoliyat yurituvchi tijorat tashkiloti hisoblanadi. Kompaniya Shifokor-82 AJ bilan hamkorlik asosida faoliyat olib boradi hamda 2009-yildan buyon Avantika Medex Pvt. Ltd. kompaniyasining O'zbekistondagi eksklyuziv distribyutori sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Avantika Medex Pvt. Ltd. tarkibida faoliyat yurituvchi ikkita farmatsevtika zavodi GMP (Good Manufacturing Practice) va GDP (Good Distribution Practice) xalqaro standartlari asosida ishlaydi, bu esa mahsulot sifatining yuqori darajada ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Kompaniya Toshkent shahri, Chilonzor tumanida joylashgan bo'lib, mazkur hududiy joylashuv shifokorlar, dorixonalar va tibbiyot muassasalari bilan samarali hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish imkonini beradi. Korxonaning logistika va distribyutsiya faoliyati, ayniqsa, Toshkent shahri hamda yirik hududiy markazlarda mahsulotlarni tezkor yetkazib berish nuqtayi nazaridan qulay infratuzilmaga ega.

Shining Impex AJ assortimentida turli terapevtik yo'nalishlarga mansub mahsulotlar mavjud bo'lib, ular 8 ta asosiy mahsulot guruhini qamrab oladi:

- urologiya va andrologiya — Sinoprost, Tadal Tab;
- energetik qo'shimchalar — Orgilevo;
- dermatologik vositalar — Trinazol;
- og'riq qoldiruvchi vositalar — Paradik Tab, Paradik Gel;
- nevrologik preparatlar — Stressi;
- respirator infeksiyalar uchun vositalar — Jaraflyu.

Mazkur assortiment kompaniyaga bir nechta terapevtik segmentlarda faoliyat yuritish va turli iste'molchi guruhlariga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini amalga oshirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, mahsulot portfelining nisbatan tor ixtisoslashganligi reklama siyosatini aniq maqsadli auditoriyaga yo'naltirish zaruratini kuchaytiradi (1-jadval).

1-jadval. Shining Impex AJ mahsulot portfeli va bozor yo'nalishlari

Mahsulot nomi	Asosiy tarkib	Yo'nalish	Asosiy iste'molchi
Sinoprost	8 o'simlik ekstrakti	Urologiya	35–60 yoshli erkaklar
Tadal Tab 4	Tadalafil 20mg + Dapoksetin 60mg	Andrologiya	Voyaga yetgan erkaklar
Orgilevo	L-Karnitin + L-Arginin	Umumiy kuchaytiruvchi	Faol hayot tarzi uchun
Trinazol 5mg	Ketokonazol + Klobetazol + Neomitsin	Dermatologiya	Barcha yoshdagilar



Paradik Tab \approx 100	Diklofenak 50mg + Paratsetamol 500mg	Og'riq qoldirish	O'rta va katta yosh
Paradik Gel	Diklofenak + Mentol + Metil salitsilat	Tashqi qo'llash	Mushak va bo'g'im og'rig'i
Stressi	Valeriana + Ashvaganda + Bakopa	Nevrologiya	Stress va uyqu muammosi
Jarafluy Por.	Paratsetamol + Feniramin + Fenilefrin	Respirator terapiya	Mavsumiy, barcha yosh

Manba: Shining Impex AJ ichki hujjatlari va muallif tahlili (2026).

O'zbekiston farmatsevtika import sektorida raqobat muhiti tobora faollashib bormoqda. Xususan, Yuria-Pharm kompaniyasining O'zbekistonda Reka-Med Farm korxonasini sotib olib, mahalliy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishi bozordagi raqobat landshaftining yangi bosqichga o'tayotganini ko'rsatadi [14]. Bu esa import kompaniyalarini nafaqat mahsulot assortimenti, balki reklama siyosati, distribyutsiya va marketing kommunikatsiyalari bo'yicha ham faolroq strategiyalar ishlab chiqishga undamoqda (2-jadval).

2-jadval. Farmatsevtika import kompaniyalarining raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari tahlili (10 ballik tizim)

Mezon	Medimpex	Pharminex	Uzbekmed	BioPharm	Shining Impex
Brend kuchi	8	7	8	6	7
Bozor qamrovi	9	7	8	6	7
Mahsulot sifati (GMP)	8	7	8	7	9
Eksklyuziv shartnoma	6	5	6	5	10
Narx raqobati	7	8	6	9	8
Distribyutsiya tarmog'i	9	7	9	7	7
Mahsulot xilma-xilligi	8	7	8	6	8
Raqamli marketing	7	6	6	5	8
Tibbiy vakil tizimi	9	7	8	6	6
Texnologik ustunlik	7	6	7	6	8
JAMI BALL	78	67	74	63	78

Manba: Muallif tomonidan ekspert baholash va bozor ma'lumotlari asosida tuzilgan (2026).

So'rovnoma natijalari respondentlarning farmatsevtika mahsulotlari haqida ma'lumot olish manbalari sezilarli darajada diversifikatsiyalashayotganini ko'rsatdi. Eng yuqori ko'rsatkich shifokor tavsiyasiga to'g'ri kelib, respondentlarning 32,5 foizi aynan shifokorlar orqali mahsulot haqida ma'lumot olishini bildirdi. Bu holat farmatsevtika sektorida professional auditoriyaning, ayniqsa shifokorlarning, iste'molchi qaroriga ta'siri hanuz yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

Ikkinchi eng muhim axborot manbai sifatida Instagram platformasidagi @shifokor.82 sahifasi qayd etildi — respondentlarning 24,6 foizi mahsulotlar haqida aynan shu kanal orqali ma'lumot olishini ko'rsatgan. Bu natija ijtimoiy tarmoqlarning farmatsevtika marketingidagi ahamiyati ortib borayotganini va raqamli kommunikatsiyalar iste'molchilar xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini anglatadi.

Shuningdek, respondentlarning bir qismi quyidagi manbalarni ham muhim deb baholadi:

- dorixona farmatsevtiklari tavsiyasi;
- qarindoshlar va tanishlar fikri;
- Telegram kanallari;
- internet qidiruv tizimlari;
- an'anaviy reklama vositalari (televideniye va tashqi reklama).

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, iste'molchilarning mahsulot tanlash qarori ko'pincha bir nechta kommunikatsiya kanallari ta'sirida shakllanadi. Shu sababli Shining Impex AJ uchun reklama faoliyatini faqat an'anaviy usullar bilan cheklab qolmasdan, omnikanallar yondashuvi asosida integratsiyalashgan marketing tizimini shakllantirish muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

Empirik natijalar shuningdek medical representative tizimini rivojlantirish zarurligini ham tasdiqlaydi. Chunki mahsulot haqida ma'lumot olishda shifokor tavsiyasi birinchi o'rinda turayotgani kompaniya uchun professional auditoriya bilan ishlashni kuchaytirish istiqbolli yo'nalish ekanini ko'rsatadi (3-jadval).



3-jadval. Respondentlarning Shining Impex AJ mahsulotlari haqida ma'lumot olish manbalari (n=114)

Ma'lumot manbai	Ulush (%)	Izoh
Shifokor tavsiyasi	32,5%	Eng muhim kanal (B2B ta'sirining natijasidir)
Instagram (@shifokor.82)	24,6%	Ikkinchi eng katta raqamli kanal
Dorixona farmatsevti	18,4%	Nuqta-satish marketing muhim
Telegram (@Shifokor_Shining)	13,2%	Professional auditoriya kanali
YouTube kanali	7,9%	Video kontent ta'sirchanligi
Boshqa manbalar	3,5%	Og'zaki tavsiya va boshqalar

Manba: Muallif so'rovnoma (2026), n=114.

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, shifokor tavsiyasi (32,5%) mahsulotlar haqida ma'lumot olishning eng muhim manbai sifatida yetakchilikni saqlab qolmoqda. Mazkur natija farmatsevtika sektorida professional auditoriya bilan ishlash, xususan medical representative tizimiga investitsiya kiritish strategik jihatdan asosli ekanligini empirik ravishda tasdiqlaydi. Shu bilan birga, Instagram (24,6%) va Telegram (13,2%) platformalari birgalikda 37,8 foizlik ko'rsatkichni qayd etib, raqamli marketing kanallarining umumiy ta'siri shifokor tavsiyasiga yaqinlashib borayotganini namoyon etadi. Ushbu tendensiya kelgusi yillarda raqamli kommunikatsiyalarning farmatsevtika marketingidagi ahamiyati yanada ortishini ko'rsatadi.

Avantika-shifokor.uz veb-saytining SEO tahlili natijalari shuni ko'rsatdiki, brend kalit so'zlari — “Shining Impex”, “Shifokor-82”, “Avantika” — bo'yicha sayt Google qidiruv tizimining birinchi sahifasida ko'rinadi. Biroq tijorat va iste'molchi ehtiyojiga yo'naltirilgan kalit so'zlar, jumladan “prostatit dorisi narxi”, “gripp dorisi O'zbekiston”, “og'riq qoldiruvchi import” kabi qidiruvlar bo'yicha saytning pozitsiyalari past darajada ekanligi aniqlandi. Bu esa kompaniya uchun mavzuli tibbiy kontent, blog maqolalari va SEO optimallashtirilgan materiallar orqali organik qidiruv trafigin oshirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi.

Instagram platformasidagi @shifokor.82 sahifasi tahlili Sinoprost mahsulotiga oid kontent eng yuqori engagement (foydalanuvchilar bilan o'zaro muloqot) ko'rsatkichlariga ega ekanligini ko'rsatdi. Bu prostatit bilan bog'liq muammolarning keng tarqalganligi hamda iste'molchilarning internet orqali tibbiy ma'lumot izlashga bo'lgan qiziqishi ortib borayotganini tasdiqlaydi.

Xalqaro tadqiqotlar natijalari O'zbekistondagi kuzatilayotgan tendensiyalar bilan uyg'un ekanligini ko'rsatadi. Xususan, Saudiya Arabistonida o'tkazilgan tadqiqot [11] farmatsevtika kompaniyalari tomonidan ijtimoiy tarmoqlar va raqamli marketing vositalarining faol qo'llanilishi yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlagan. Ushbu tajriba O'zbekistonda ham, ayniqsa Instagram va Telegram auditoriyasining jadal kengayib borayotgani fonida, dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, Livanda Rahme va boshqalar tomonidan o'tkazilgan tadqiqot [8] tibbiy vakillar tizimining shifokorlarning retsept yozish qarorlariga bevosita ta'sir ko'rsatishini empirik jihatdan isbotlagan. Mazkur natijalar Shining Impex AJ uchun medical detailing tizimini rivojlantirish va professional auditoriya bilan tizimli ishlash strategiyasining iqtisodiy hamda marketing jihatdan maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot — korxonada faoliyati tahlili, 114 respondent orasida o'tkazilgan so'rovnoma va raqamli marketing diagnostikasini birlashtirgan holda quyidagi asosiy xulosalarga kelish imkonini berdi:

1. Shining Impex AJ bozordagi raqobat bahosi bo'yicha 78/100 ball bilan yetakchi kompaniyalar qatoridan o'rin oldi. Kompaniyaning asosiy ustunliklari eksklyuziv distribyutorlik shartnomasi (10/10) hamda GMP standartlariga mos mahsulot sifati (9/10) bilan izohlanadi.

2. Tibbiy vakil (medical representative) tizimi kompaniyaning eng zaif jihatlaridan biri bo'lib (6/10), respondentlarning 32,5 foizi mahsulot haqida aynan shifokor tavsiyasi orqali ma'lumot olishini hisobga olganda, ushbu yo'nalishni rivojlantirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

3. Raqamli marketing kanallari sezilarli darajada kuchayib bormoqda. Xususan, Instagram (24,6%) va Telegram (13,2%) platformalari birgalikda 37,8 foizlik ko'rsatkichni qayd etib, shifokor tavsiyasiga (32,5%) yaqinlashgan. Bu esa omnikanallar marketing yondashuvining istiqbolli ekanini ko'rsatadi.

4. Respondentlarning 36,8 foizi klinik tadqiqotlar va ilmiy asoslangan kontentga yuqori qiziqish bildirgan. Bu farmatsevtika marketingida evidence-based marketing yondashuvi eng samarali strategiyalardan biri ekanligini tasdiqlaydi.

5. SEO optimallashtirishning yetarli darajada shakllanmagani va reklama ROI (Return on Investment) baholash tizimining mavjud emasligi marketing resurslarining samaradorligini pasaytirmoqda hamda reklama xarajatlarini strategik boshqarishni murakkablashtirmoqda (4-jadval).



4-jadval. Shining Impex AJ uchun reklama siyosatini takomillashtirish bo'yicha ustuvor tavsiyalar

Tavsiya yo'nalishi	Asosiy chora-tadbirlar	Kutilgan natija	Ustuvorlik
Medical representative tizimini shakllantirish	3–5 tibbiy vakil yollash; Toshkent klinikalari va poliklinikalariga yo'naltirish; detailing materiallarini tayyorlash	Shifokor buyurtmasi 20–30% o'sishi	YUQORI
ROI baholash tizimini joriy etish	Har bir kanal uchun UTM-linklar va analytics o'rnatish; oylik KPI hisobotini joriy etish	Marketing xarajatlari samaradorligi 15–25% o'sishi	YUQORI
SEO va kontent marketing strategiyasini kuchaytirish	Har bir mahsulot sahifasini kalit so'zlar bilan optimallashtirish; tibbiy blog yaratish; Google My Business yangilash	Organik qidiruv trafigi 40–60% o'sishi	O'RTA-YUQORI
Omnikanallar yondashuvini joriy etish	Instagram, Telegram, YouTube, veb-sayt va tibbiy vakillarni yagona content plan asosida birlashtirish	Brend tanilishi va iste'molchi ishonchi o'sishi	O'RTA
Viloyat distribyutsiya tarmog'ini kengaytirish	Samarqand, Farg'ona, Namangan viloyatlarida dorixona hamkorlik dasturlarini ishlab chiqish	Viloyat savdosi 25–35% o'sishi	O'RTA
Ilmiy asoslangan kontent yaratish	Mahsulot bo'yicha klinik ma'lumotlar, yon ta'sirlar va foydalanish ko'rsatmalarini tibbiy tilda tayyorlash	Iste'molchi ishonchi va qayta xarid 15% o'sishi	O'RTA

Manba: Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzilgan (2026).

Shining Impex AJning kelajagi nafaqat uning eksklyuziv shartnoma imtiyoziga, balki ushbu imtiyozdan samarali foydalanuvchi, ilmiy asoslangan va o'lchovli reklama siyosatiga ham bevosita bog'liq. Medical representative tizimini shakllantirish, ROI baholash mexanizmini joriy etish hamda omnikanallar yondashuvini amaliyotga tatbiq etish orqali kompaniya bozordagi ulushini sezilarli darajada oshirish imkoniyatiga ega.

Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, O'zbekiston farmatsevtika import sektori bo'yicha ilk bor birlamchi so'rovnomaga natijalari va raqobat Benchmarking ma'lumotlari yagona tizimda birlashtirilib, kompleks tahlil qilindi. Kelgusida tadqiqotlarda respondentlar sonini kengaytirish, longitudinal panel tadqiqotlarini amalga oshirish hamda medical representative tizimini joriy etishdan oldin va keyingi samaradorlik ko'rsatkichlarini qiyosiy baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- IQVIA Market Data. (2025). Uzbekistan Pharmaceutical Market Review, MAT September 2025. URL: [Times Central Asia](#)
- Proxima Research International. (2025). Pharmaceutical Market of Uzbekistan: Key Indicators for 2024. PharmXplorer Analytics System. URL: [Proxima Research International](#)
- EY Uzbekistan. (2025). EY Launches a Pharmaceutical Market Survey in Uzbekistan. EY Newsroom. URL: [EY Uzbekistan](#)
- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. (2026). O'zbekiston Respublikasida dori vositalarini reklama qilish tartibi haqida me'yoriy hujjatlar. URL: [Sog'liqni saqlash vazirligi](#)
- Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). Marketing Management (15th ed.). Pearson Education.
- Porter, M. E. (1985). Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. New York: Free Press.
- Gupta, R., & Singh, V. (2025). Trends in pharmaceutical marketing and branding research: A bibliometric analysis (2009–2023). IIM Ranchi Journal of Management Studies. Emerald Publishing. URL: [DOI reference](#)
- Rahme, E., et al. (2019). Pharmaceutical marketing strategies' influence on physicians' prescribing patterns in Lebanon: Ethics, gifts, and samples. BMC Health Services Research, 19(1), 80. URL: [PMC article](#)
- Al-Areefi, M. A., et al. (2024). The role of pharmaceutical marketing in prescribing decisions in a developing country. Journal of Public Health and Pharmacy. URL: [Journal of Public Health and Pharmacy](#)
- Introspective Market Research. (2025). Pharma and Healthcare Social Media Marketing Market Size, 2024–2032. URL: [Introspective Market Research](#)
- Al-Amri, M., et al. (2020). Prevalence and perceived effectiveness of pharmaceutical digital marketing among community pharmacies in Saudi Arabia. Pharmacy (Basel), 8(1), 16. URL: [PMC article](#)
- Proxima Research. (2025). Trends in the Development of Pharmaceutical Markets in Kazakhstan and Uzbekistan. Eurasian Pharmaceutical Summit 2026. URL: [Eurasian Pharmaceutical Summit](#)
- UzPharm Control. (2026). Farmakopeya qo'mitasi faoliyati: 2025-yil natijalari va tizimli o'zgarishlar tahlili. URL: [UzPharm Control](#)
- Kun.uz. (2026, 20-fevral). Sifatni yo'qotmasdan mahalliyashtirish: YuRiYa-FARM O'zbekistonda qanday faoliyat yuritmoqda? URL: [Kun.uz maqolasi](#)
- Salohiddinova, S. S. (2025). O'zbekiston farmatsevtika bozorining rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari. Pharmaceutical Technology Journal. URL: [Pharmaceutical Technology Journal](#)



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
